



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 103-115 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO‘QIMACHILIK SANOATIDA SUN‘IY TOLALAR ASOSIDA QIYMAT ZANJIRINI CHUQURLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI



Raximov Furqat Jalolovich

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi raisining maslahatchisi,
TDIU, mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoatida sun‘iy tolalar asosida qiymat zanjirini chuqurlashtirishning institutsional mexanizmlari nazariy jihatdan tizimlashtirildi. Tadqiqotda qiymat zanjiri va institutsional iqtisodiyot yondashuvlari integratsiyasi asosida to‘rtta asosiy mexanizm ajratildi: me‘yoriy-huquqiy tartibga solish, moliyaviy instrumentlar, tashkiliy mexanizmlar va texnologik transfert. Har bir mexanizmning iqtisodiy mazmuni, amal qilish shartlari va zanjir bosqichlariga ta‘siri tahlil qilindi. Xalqaro ilmiy manbalar asosida sun‘iy tolalar sanoatidagi institutsional bo‘shliqlar aniqlandi. Natijada mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi va ularni kompleks qo‘llash qiymat zanjirida yuqori bosqichlarga chiqishni ta‘minlashi ko‘rsatildi. Maqola sanoat siyosati va institutsional rivojlanish uchun nazariy asos yaratdi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy tolalar, qiymat zanjiri, institutsional mexanizmlar, institutsional iqtisodiyot, texnologik transfert, sanoat klasterlari, moliyaviy instrumentlar, to‘qimachilik sanoati

Аннотация. В статье были теоретически систематизированы институциональные механизмы углубления цепочки добавленной стоимости в текстильной промышленности на основе синтетических волокон. На основе интеграции теории глобальных цепочек стоимости и институциональной экономики были выделены четыре ключевых механизма: нормативно-правовое регулирование, финансовые инструменты, организационные механизмы и технологический трансфер. Для каждого механизма были определены экономическое содержание, условия реализации и влияние на этапы цепочки. На основе международных научных источников были выявлены институциональные разрывы в секторе синтетических волокон. В результате было обосновано их взаимодополняющее воздействие и показано, что комплексное применение способствует продвижению к более высоким этапам цепочки стоимости. Статья сформировала теоретическую основу для промышленной политики и институционального развития.

Ключевые слова: синтетические волокна, цепочка добавленной стоимости, институциональные механизмы, институциональная экономика, технологический трансфер, промышленные кластеры, финансовые инструменты, текстильная промышленность

Abstract. This article systematized the institutional mechanisms for deepening value chains in the textile industry based on synthetic fibers. The study integrated global value chain theory and institutional economics and identified four key mechanisms: regulatory frameworks, financial

instruments, organizational mechanisms, and technology transfer. For each mechanism, the economic content, implementation conditions, and impact across value chain stages were analyzed. Based on international scholarly sources, institutional gaps in the synthetic fiber sector were identified. The findings demonstrated the complementary interaction of these mechanisms and showed that their combined application facilitated upgrading to higher value chain stages. The article provided a theoretical foundation for industrial policy and institutional development in the textile sector.

Keywords: *synthetic fibers, value chain, institutional mechanisms, institutional economics, technology transfer, industrial clusters, financial instruments, textile industry.*

KIRISH

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida global ishlab chiqarish tizimlarining keskin qayta tashkil etilishi to‘qimachilik sanoatini ham chuqur o‘zgarishlarga duchor etdi. Bu o‘zgarishlarning eng muhim jihatlaridan biri - natural (tabiiy) tolalar bilan bir qatorda sun‘iy va sintetik tolalarning ulushi tizimli ravishda ortib borishi bo‘lib, bu holat sanoat tuzilmasida yangi institutsional o‘lchamlarni paydo qilmoqda. Textile Exchange tashkilotining 2022-yil hisobotiga ko‘ra, global tolalar ishlab chiqarishning jami hajmida poliyester ulushi 54 foizdan oshib ketdi, bu esa sun‘iy tolalar segmentini global to‘qimachilik qiymat zanjirining markaziy bo‘g‘iniga aylantirdi [2].

Qiymat zanjiri tushunchasi G. Gereffi va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy doirada ishlab chiqarish bosqichlari o‘rtasidagi munosabatlarni nafaqat texnologik, balki boshqaruv va institutsional jihatdan ham tavsiflovchi kategoriya sifatida belgilangan [1], [6]. Biroq, aynan sun‘iy va sintetik tolalar segmentining institutsional o‘lchamlari - ya‘ni xom ashyo manbalari (neft-kimyoh mahsulotlari)dan tayyor to‘qimachilik mahsulotiga qadar bo‘lgan zanjir bo‘g‘inlari o‘rtasidagi huquqiy, tashkiliy va moliyaviy aloqalar - nazariy tadqiqotlarda yetarli darajada alohida ajratib o‘rganilmagan. Bu holat ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun amaliy muammo bo‘lib, ular sun‘iy tolalar ishlab chiqarish infratuzilmasiga ega bo‘lsa-da, qo‘shimcha qiymat shakllanishini ta‘minlovchi institutsional mexanizmlardan mahrum qolmoqda [11].

Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan D. North [3] ta‘kidlagan rasmiy va norasmiy qoidalar tizimi nafaqat iqtisodiy xatti-harakatni shakllantiradi, balki qiymat zanjirining turli bo‘g‘inlari o‘rtasida axborot, kapital va texnologiyalar oqimini tartibga soluvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Sun‘iy tolalar asosida qurilgan qiymat zanjirida ushbu tartibga solish funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kimyoviy va to‘qimachilik sanoatlarining kesishish nuqtasida texnik standartlar, sertifikatlash talablari va ekologik me‘yorlarning uyg‘unlashtirilishi murakkab institutsional muhitni keltirib chiqaradi.

Global miqyosda sun‘iy tolalar asosida qiymat zanjirini chuqurlashtirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon texnologik innovatsiyalar bilan bir vaqtda institutsional binolar - ya‘ni sanoat klasterlari, davlat-xususiy sheriklik platformalari, tarmoq assotsiatsiyalari va texnologik transfert mexanizmlari - qurilishini talab etadi [5], [8]. OECD tadqiqotlari asosida aniqlanganidek, qiymat zanjirida yuqori bosqichlarga ko‘tarilish (upgrading) imkoniyati ko‘pincha texnologiyadan ko‘ra institutsional muhitning sifatiga bog‘liq [5].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - to'qimachilik sanoatida sun'iy tolalar asosida qiymat zanjirini chuqurlashtirishning institutsional mexanizmlarini konseptual jihatdan tizimlashtirish va ularning amaliy samaradorligini baholash uchun nazariy doira ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalar doirasida amalga oshirildi: qiymat zanjiri va institutsional iqtisodiyot nazariyalarining kesishish nuqtalarini aniqlash; sun'iy tolalar segmentiga xos institutsional bo'shliqlarni tahlil qilish; zanjirni chuqurlashtirishning to'rtta institutsional komponentini nazariy jihatdan asoslash; va siyosat darajasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolaning tuzilmasi quyidagicha: ikkinchi bo'limda adabiyotlar sharhi keltiriladi, uchinchi bo'limda metodologik yondashuv tavsiflanadi, to'rtinchi bo'limda tahlil va natijalar bayon etiladi, beshinchi bo'limda xulosa va tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qiymat zanjiri nazariyasi iqtisodiy tahlil sohasida nisbatan yosh yo'nalish bo'lib, M. Porter [4] tomonidan kiritilgan raqobatbardosh ustunlik tushunchasidan kelib chiqqan. Porter firmaning ichki faoliyatini bir-biri bilan bog'liq bosqichlarga - birlamchi va yordamchi faoliyatlarga - ajratib tahlil qilish metodologiyasini taklif etdi. Keyinchalik bu yondashuv firmalar o'rtasidagi munosabatlar va global ishlab chiqarish tarmoqlari nuqtai nazaridan kengaytirildi.

G. Gereffi, J. Humphrey va T. Sturgeon [6] tomonidan 2005-yilda taklif etilgan global qiymat zanjirlari boshqaruvi nazariyasi bu yo'nalishdagi eng muhim nazariy yutuqlardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda boshqaruv shakllari beshta kategoriya bo'yicha tasniflandi: bozor, modulli, relatsion, tutqun va iyerarxik. Sintetik tolalar sanoatida ko'p hollarda tutqun (captive) yoki relatsion boshqaruv shakllari kuzatiladi, chunki kimyoviy xom ashyo ishlab chiqaruvchilar va to'qimachilik korxonalarini o'rtasidagi munosabatlar uzoq muddatli shartnomaviy majburiyatlarga asoslanadi.

Gereffi va Fernandez-Stark [1] tomonidan 2016-yilda yangilangan Global qiymat zanjirlari tahlilining metodologik qo'llanmasi qiymat zanjirini o'rganishning beshta o'lchovini aniqladi: kirish-chiqish tuzilmasi, geografik qamrov, boshqaruv, institutsional kontekst va yuksalish imkoniyatlari. Aynan institutsional kontekst o'lchovida sun'iy tolalar sanoatining o'ziga xos xususiyatlari - kimyoviy sanoat bilan kesishishi, ekologik tartibga solish talablari, intellektual mulk masalalari - muhim rol o'ynaydi va bu holat to'qimachilik sanoatidagi institutsional tadqiqotlar uchun alohida metodologik izlanishni talab etadi.

Zanjir bo'yicha yuksalish (upgrading) jarayonlarini o'rganishda Humphrey va Schmitz [10] to'rt xil yuksalish turlari: jarayon yuksalishi, mahsulot yuksalishi, funksional yuksalish va tarmoqlararo yuksalish - klassifikatsiyasini taqdim etdi. Sintetik tolalar segmentida eng murakkab va samarali yuksalish turi - funksional yuksalish, ya'ni ishlab chiqarishdan dizayn, marketing va brend boshqaruviga o'tish - aniq institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Yangi institutsional iqtisodiyotning asoschilaridan biri D. North [3] institutlarni "o'yindagi qoidalar", ya'ni inson o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy cheklovlar tizimi sifatida ta'rifladi. North nazariyasiga ko'ra, institutsional o'zgarishlar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, texnologik innovatsiyalar ko'pincha institutsional o'zgarishlar orqali iqtisodiy natijalarga aylanadi. To'qimachilik

sanoatida bu qonuniyat ayniqsa yaqqol ko‘rinadi: bir xil texnologiyalarga ega ikki mamlakat turlicha institutsional muhit tufayli qiymat zanjirida turli o‘rinlarni egallashi mumkin.

O. Williamson [7] tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari nazariyasi qiymat zanjiri bo‘g‘inlari o‘rtasidagi tashkiliy munosabatlarni tushuntirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Williamson firmalar va bozor o‘rtasidagi chegarani tranzaksiya xarajatlarning darajasiga qarab belgiladi. Sun‘iy tolalar sanoatida, ayniqsa, kimyoviy xom ashyo va to‘qimachilik ishlab chiqarish o‘rtasidagi munosabatlarda aktivlar o‘ziga xosligi (asset specificity) yuqori bo‘lganligi sababli vertikal integratsiya yoki kuchli shartnomaviy munosabatlar ko‘proq uchraydi.

D. Acemoglu va J. Robinson [16] o‘zlarining fundamental asarida inklyuziv va ekstraktiv institutsional tuzilmalar o‘rtasidagi farqni ochib berib, birinchi turdagi tuzilmalar iqtisodiy taraqqiyot uchun samarali sharoit yaratishini isbotladi. To‘qimachilik sanoati kontekstida bu nazariya shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy tolalar asosida qiymat zanjirini chuqurlashtirish faqat investitsiyalar oqimi bilan emas, balki asosan inklyuziv institutsional muhitning - adolatli raqobat qoidalari, mulk huquqining himoyasi, korrupsiya darajasining pastligi - shakllanishi bilan bog‘liq.

Ponte va Sturgeon [12] tomonidan taklif etilgan modulli boshqaruv nazariyasi zamonaviy sun‘iy tolalar qiymat zanjiri uchun alohida ahamiyatga ega. Ular boshqaruv mexanizmlari nafaqat narxlar va rasmiy shartnomalar orqali, balki standartlar, audit tizimlari va brendlash strategiyalari orqali ham amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Bu mulohaza sun‘iy tolalar segmentida texnik standartlar tizimining institutsional qo‘llab-quvvatlashga bog‘liqligini yanada kuchaytiradi.

To‘qimachilik sanoatida klaster yondashuvi M. Porter [4] tomonidan nazariy jihatdan asoslanib, keyinchalik son-sanoqsiz empirik tadqiqotlarda testdan o‘tkazildi. Klasterning asosiy imtiyozlari - mahalliy raqobat, mahalliy talab, bog‘liq va yordamchi tarmoqlar, hamda omillar sharoiti - to‘qimachilik-tikuv majmuasida ayniqsa samarali namoyon bo‘ladi.

Bathelt, Malmberg va Maskell [24] tomonidan ishlab chiqilgan “mahalliy shovqin, global quvurlar” (local buzz, global pipelines) kontseptsiyasi klasterlarning ichki va tashqi bilim almashinuv mexanizmlari o‘rtasidagi muvozanatni tushuntiradi. Sun‘iy tolalar sanoati klasterlari uchun global quvurlar - ya‘ni xalqaro texnologik hamkorlik va chet el investitsiyalari - ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki bu sohadagi texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda.

Morrison, Rabellotti va Zirulia [18] klaster ichidagi bilim tarqalishi tezligini global quvurlarning soni va sifatiga bog‘liq ekanligini isbotladi. Bu xulosaning to‘qimachilik sanoatiga tatbiqi shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy tolalar texnologiyalarini O‘zbekiston singari rivojlanayotgan bozorlar sharoitida o‘zlashtirish uchun maxsus tashkiliy vositachilik mexanizmlari - texnologik parklar, innovatsiya markazlari, eksport yo‘naltiruvchi agentliklar - zarur [9].

Gibbon, Bair va Ponte [13] global qiymat zanjirlarini boshqarishning normativ-hujjatli asoslarini o‘rganib, standartlar tizimi va sertifikatli mexanizmlarining zanjir bo‘g‘inlari o‘rtasidagi kuch munosabatlarini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynashini

ko'rsatdi. Sun'iy tolalar uchun bu sohada Oeko-Tex, GOTS (Global Organic Textile Standard) va bluesign® kabi xalqaro standartlar keng tarqalib bormoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy manbalarga asoslanib, adabiyotdagi quyidagi muhim bo'shliqlar aniqlanadi: birinchidan, global qiymat zanjirlari adabiyotida sun'iy tolalar segmenti ko'pincha tabiiy tolalar (paxta, jun) yoki kiyim-kechak bilan birga o'rganiladi, holbuki bu segment o'ziga xos kimyoviy-texnologik xususiyatlarga va shunga mos institutsional talablarga ega; ikkinchidan, institutsional iqtisodiyot nazariyasi va qiymat zanjiri tahlilining sintezi nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan; uchinchidan, sun'iy tolalar uchun institutsional mexanizmlarning to'liq to'rt komponentli modeli adabiyotda mavjud emas. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqlarni to'ldirish orqali nazariy bazaga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot konstruktivistik epistemologik paradigma doirasida amalga oshirildi. Konstruktivistik yondashuv institutsional munosabatlarni obyektiv va o'zgarmas hodisa emas, balki iqtisodiy agentlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadigan tuzilmalar sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv qiymat zanjirlarining institutsional o'lchamlarini o'rganishda ayniqsa samarali, chunki institutlar rasmiy qoidalar va norasmiy normalar majmui sifatida ijtimoiy konstruksiya tabiatiga ega.

Tadqiqotda nazariy-analitik metoddan foydalanildi: mavjud adabiyotlar tizimli tahlil qilindi, asosiy nazariy konstruktlar aniqlandi va ular asosida sun'iy tolalar qiymat zanjiri uchun amaliy tatbiqi mumkin bo'lgan konseptual model ishlab chiqildi. Nazariy modellash davomida deduktiv mantiq qo'llanildi: umumiy nazariy qoidalardan aniq soha - sun'iy tolalar to'qimachiligi - uchun xulosa chiqarildi.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy institutsional tahlil (Comparative Institutional Analysis) tashkil etadi. Williamson [7] tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari tahlili doirasida boshqaruv mexanizmlarining turli turlari (bozor, iyerarxiya, gibrid) sun'iy tolalar qiymat zanjiri nuqtai nazaridan qiyosiy baholandi. Ushbu metodologiya institutsional muqobil variantlarni - ya'ni turli sharoitlarda qaysi institutsional tuzilma qiymat zanjirini chuqurlashtirishga ko'proq hissa qo'shishi mumkinligini - baholash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlilni amalga oshirishda quyidagi tahlil birliklari aniqlandi: zanjir bo'g'inlari (xom ashyo → kimyoviy qayta ishlash → tolalar ishlab chiqarish → to'qimachilik ishlab chiqarish → tayyor mahsulot); bo'g'inlar o'rtasidagi munosabat turlari (raqobat, hamkorlik, iyerarxik boshqaruv); va bu munosabatlarni tartibga soluvchi institutsional vositalar (qonunlar, standartlar, shartnomalar, norasmiy normalar).

Sun'iy tolalar qiymat zanjiri murakkab tizimlarga xos xususiyatlarga ega: ko'p bosqichlilik, turli sanoat tarmoqlari (kimyo va to'qimachilik) o'rtasidagi kesishish, ko'p sonli agentlar va boshqaruv darajalari. Shu sababli tizimli tahlil yondashuvi qo'llanildi, bunda qiymat zanjiri yaxlit tizim sifatida - uning tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi munosabatlar, tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir va tizimning umumiy xossalari nuqtai nazaridan - o'rganildi.

Tizimli tahlilning asosiy instrumentlaridan biri sifatida Sturgeon [22] tomonidan tavsiya etilgan qiymat zanjiri xaritalash metodologiyasidan foydalanildi: har bir bosqichda kiritma va chiqitma oqimlari, qo'shilgan qiymat dinamikasi, asosiy agentlar va ular

o'rtasidagi boshqaruv mexanizmlari aniqlandi. Institutsional mexanizmlar esa North [3] klassifikatsiyasiga asoslanib rasmiy (qonunchilik, standartlar, litsenziyalash) va norasmiy (biznes madaniyati, tarmoq normalar, ishonch) turlarga ajratildi.

Tadqiqotda ochiq manbalardan foydalanish tamoyiliga qat'iy rioya qilindi. Asosiy manbalar: Textile Exchange va CIRFS tashkilotlarining ochiq statistik ma'lumotlari; OECD, UNCTAD, UNIDO va Jahon banki nashrlari; Review of International Political Economy, Journal of Economic Literature, Regional Studies va Economic Geography kabi Q1-Q2 darajasidagi ilmiy jurnallardagi maqolalar; hamda European Commission'ning siyosat hujjatlari qo'llanildi. Barcha raqamli ko'rsatkichlar ochiq manbalar asosida tekshirildi va faqat tasdiqlanganlar ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Sun'iy tolalar asosida qurilgan qiymat zanjiri kimyoviy va to'qimachilik sanoatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab ko'p bosqichli tizimni ifodalaydi. Zanjir tahlilining boshlanish nuqtasi - neft va tabiiy gazdan olinadigan kimyoviy xom ashyo bo'lib, bu bosqichda asosan transmilliy neft-kimyokorporatsiyalari faol rol o'ynaydi. Keyingi bosqich - polimerizatsiya va ekstruziya jarayonlari orqali sintetik tolalar ishlab chiqarish - yuqori texnologik intensivlik va kapital talab qiladi. Uchinchi bosqich - texnologik jihatdan chetlab o'tib bo'lmaydigan ip yigirish va teksturizatsiya - sun'iy tolalarni real to'qimachilik mahsulotlarga aylantiradi.

Global miqyosda poliyester tolalarining ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Xitoy dominantligi yaqqol ko'rinadi: CIRFS ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy sun'iy tolalar global ishlab chiqarishining 70 foizdan ortiq qismini ta'minlaydi [23]. Biroq ishlab chiqarish hajmi bilan qo'shimcha qiymat ulushi o'rtasida keskin farq mavjud. Textile Exchange tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zanjirning quyi bosqichlarida (xom ashyo va polimerizatsiya) qo'shimcha qiymat marjasi nisbatan past bo'lib, yuqori bosqichlarga (texnik to'qimalar, maxsus kiyim, ekologik sertifikatlangan mahsulotlar) o'tganda qiymat jadal oshadi [2].

Kano, Tsang va Yeung [25] tomonidan 2020-yilda chop etilgan fundamental ko'rib chiqish maqolasi ko'p tarmoqli adabiyotlar sintezi asosida qiymat zanjirlari tuzilmasida so'nggi o'n yillikda yuz bergan uchta asosiy tendensiyani aniqladi: birinchi, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridan ko'ra tarmoq asosidagi koordinatsiyaning kuchayishi; ikkinchi, sifat standartlari va ekologik sertifikatlangan talablarning qat'iyroq bo'lib borishi; va uchinchi, raqamli texnologiyalar orqali zanjir shaffofligiga bo'lgan talabning oshishi. Bu tendensiyalar sun'iy tolalar segmentida institutsional talablarni yanada kuchaytirmoqda.

Me'yoriy-huquqiy tartibga solish mexanizmi. North [3] nazariyasiga ko'ra, rasmiy qoidalar iqtisodiy agentlar xatti-harakatini eng aniq va kuchli tartibga soluvchi vositadir. Sun'iy tolalar sanoatida rasmiy qoidalar tizimi uch asosiy darajada ishlaydi: mahsulot standartlari darajasida (tolalarning fizikaviy-kimyoviy parametrlari, xavfsizlik talablari), ekologik tartibga solish darajasida (xavfli kimyoviy moddalardan foydalanishni cheklash, chiqindilarga qo'yiladigan talablar) va savdo-iqtisodiy qoidalar darajasida (bojxona tartiblari, miqyos talablari, subsidiyalash qoidalari). European Commission tomonidan 2022-yilda qabul qilingan to'qimachilik sanoatiga oid barqaror va aylanma iqtisodiyot strategiyasi [19] global miqyosda eng keng qamrovli me'yoriy-huquqiy asos hisoblanib, u

sun'iy tolalar ishlab chiqaruvchilari uchun yangi institutsional talablarni belgilaydi va ayni paytda innovatsiyalar uchun yangi bozor imkoniyatlarini ochib beradi.



1-rasm. Sun'iy tolalar qiymat zanjirining institutsional mexanizmlari modeli¹

1-rasmdagi model asosida sun'iy tolalar qiymat zanjirini chuqurlashtirishning to'rtta institutsional mexanizmi nazariy jihatdan quyidagicha asoslanadi.

Moliyaviy instrumentlar mexanizmi. Sun'iy tolalar qiymat zanjirida moliyaviy institutlar - tijorat banklari, rivojlanish banklari, eksport-import banklari, kafolatli fondlar - har bir bo'g'inning rivojlanish sur'atini belgilovchi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tranzaksiya xarajatlari nazariyasi [7] nuqtai nazaridan moliyaviy instrumentlar zanjir bo'g'inlari o'rtasidagi kapital oqimini arzonlashtirish va xavfni qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi. Jahon banki [8] tomonidan o'rganilgan global tajriba shuni ko'rsatadiki, sun'iy tolalar ishlab chiqarish bo'yicha sezilarli yutuqqa erishgan mamlakatlar - Janubiy Koreya, Tayvan, Tailand - o'z rivojlanishlarining dastlabki bosqichida aniq yo'naltirilgan kredit va subsidiya dasturlaridan keng foydalanganlar. Rivojlanish banklari tomonidan kafolatlangan eksport kreditlari quyi bosqich korxonalarini uchun yuqori bosqichlarga intilishdagi asosiy moliyaviy risk omilini qoplaydigan mexanizm sifatida amal qiladi.

Tashkiliy mexanizmlar. Klaster nazariyasi [4] va Bathelt va boshqalar [24] tomonidan ishlab chiqilgan mahalliy bilim ekotizimi konsepsiyasi asosida tashkiliy mexanizmlar quyidagi to'rtta element orqali qiymat zanjirini chuqurlashtirishga hissa qo'shadi: birinchi, sanoat klasterlari geografik jihatdan konsentratsiyalangan korxonalar o'rtasida spillover effektlari va kollektiv samaradorlikni ta'minlaydi; ikkinchi, tarmoq assotsiatsiyalari sanoat darajasida lobbichilik, standartlashtirish va axborot almashish

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

funksiyalarini bajaradi; uchinchi, texnologik parklar va innovatsiya markazlari xomiy tadqiqot-ishlanmalar bazasini va global bilim oqimlari bilan bog‘lanishni ta‘minlaydi; to‘rtinchi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) platformalari investitsion xatarlarni taqsimlash va umumiy infrastruktura yaratish uchun optimal mexanizm sifatida amal qiladi. UNIDO tadqiqotlari [11] ko‘rsatishicha, to‘qimachilik sanoatida yuksalishga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasida tarmoq klasterlari shakllanishida davlat tashabbusi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Texnologik transfert mexanizmi. Morrison va boshqalar [18] tomonidan isbotlanganidek, texnologik bilim tarqalishi o‘z-o‘zidan yuz bermaydi - u institutsional vositachilarni talab qiladi. Sun‘iy tolalar sanoatida texnologik transfertni ta‘minlovchi asosiy institutsional vositalar: intellektual mulkni himoya qilish tizimi (patent qonunchiligi, litsenziya shartnomalari tizimi), raqamli platformalar orqali texnologik shaffoflik, va xalqaro texnologik hamkorlik mexanizmlari (joint venture, litsenziyalash, franchayzing). ADB hisoboti [15] Osiyo mintaqasidagi to‘qimachilik klasterlarida texnologik transfert samaradorligi bevosita intellektual mulk huquqining qanchalik ishonchli himoya qilinishiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

1-jadval.

Institutsional mexanizmlarning qiymat zanjiri bosqichlariga ta‘sir matritsasi²

Qiymat zanjiri bosqichi	Me‘yoriy-huquqiy tartibga solish	Moliyaviy instrumentlar	Tashkiliy mexanizmlar	Texnologik transfert
Xom ashyo (neft-kimyo)	Ekologik standartlar, xavfli moddalar ro‘yxati	Kapitalga kirish, uzoq muddatli kredit	Vertikal integratsiya uyushmalari	Jarayonli texnologiya litsenziyalari
Kimyoviy qayta ishlash	GHS sertifikatsiyasi, REACH tartibga solish	R&D uchun subsidiyalar	Texnopark platformalari	Polimer sintezi patent tizimi
Tolalar ishlab chiqarish	ISO 9001, ekologik sertifikatlar	Uskunalar kreditlari, DXSh	Sanoat klasterlari	Spin texnologiyasi transferti
Gazlama va tikuv	Oeko-Tex, GOTS standartlari	Eksport kreditlari, kafolatlar	Eksport yo‘naltiruvchi agentliklar	Dizayn va CAD/CAM almashinuv
Tayyor mahsulot (Bozor)	Sifat belgisi, miqyos qoidalari	Savdo moliyasi, faktoring	Savdo assotsiatsiyalari, brendlash	Raqamli marketing platformalari

1-jadvaldan ko‘rinadiki, institutsional mexanizmlarning ta‘sir intensivligi qiymat zanjirining turli bosqichlarida farqlanadi. Xom ashyo va kimyoviy qayta ishlash bosqichlarida me‘yoriy-huquqiy tartibga solish va moliyaviy instrumentlar ustuvorlikka ega bo‘lsa, yuqori bosqichlarda (gazlama ishlab chiqarish, tayyor mahsulot) tashkiliy mexanizmlar va texnologik transfert tobora muhim rol o‘ynaydi. Bu differensial ta‘sir bir

² Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

jihtadan sohaning texnologik xususiyatlari (pastki bosqichlarda kapital va xavfsizlik talablar yuqori, yuqori bosqichlarda bilim va innovatsiyalar ustunlik qiladi) bilan, ikkinchi jihtadan raqobat muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi.

Sun'iy tolalar qiymat zanjirida institutsional bo'shliq - ya'ni mavjud institutlar va zarur institutsional qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi tafovut - bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchi, texnik standartlash tizimidagi bo'shliq: ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar milliy standartlar tizimini xalqaro texnik me'yorlar (ISO, EN, ASTM) bilan uyg'unlashtirmaganligidan mahsulotlarining xalqaro bozorlarga kirishi qiyinlashadi. Pont va Sturgeon [12] ta'kidlaganidek, standartlar qiymat zanjirida boshqaruv kuchini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun standartlash tizimidagi zaiflik mamlakat korxonalarini zanjirda past bosqichlarda qolishga mahkum etadi.

Ikkinchi asosiy bo'shliq - moliyalashtirish zanjirida. Tranzaksiya xarajatlari nazariyasi [7] nuqtai nazaridan sun'iy tolalar sanoatida aktivlar o'ziga xosligi yuqori bo'lganligi sababli kreditlash xavfi ham yuqori. Natijada tijorat banklari ushbu sektorda kreditlash faolligini cheklab qo'yadi, bu esa korxonalarni texnologik yuksalish uchun zarur kapitaldan mahrum qiladi. Jahon banki [8] ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'qimachilik korxonalarining moliyaga kirishidagi qiyinchiliklar texnologik yuksalishning asosiy to'siqlaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi bo'shliq - tashkiliy koordinatsiya darajasida. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar to'qimachilik sektorida korxonalarining o'zaro hamkorlikka moyilligi past, tarmoq assotsiatsiyalari zaif va klaster dinamikasi hali shakllanish bosqichida. ILO [20] ishchi o'rinlari va qiymat zanjiri tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik sanoatida mehnat unumdorligining o'sishi ko'pincha texnologiyadan ko'ra tashkiliy qobiliyat bilan bog'liq. Bu esa tashkiliy mexanizmlarning alohida e'tiborga olishni talab etishini tasdiqlaydi.

To'rtinchi bo'shliq - texnologik transfert mexanizmlari sohasida. McKinsey [21] tadqiqotiga ko'ra, to'qimachilik sanoatida texnologik yangilanish jarayonida yangi texnologiyalarga ega bo'lish qiyinchiligi eng ko'p eslatilgan to'siqlardan biri. Sun'iy tolalar sohasida texnologiyalar asosan transmilliy korporatsiyalar qo'lida bo'lganligi sababli, rivojlanayotgan mamlakatlardagi korxonalar uchun texnologiyaga kirishning asosiy yo'li - xalqaro litsenziya shartnomalar yoki qo'shma korxonalar tashkil etish - institutsional qo'llab-quvvatlashsiz kamdan-kam samarador bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida sun'iy tolalar qiymat zanjirini chuqurlashtirishning institutsional mexanizmlarini amalga oshirishning bosqichma-bosqich konseptual modeli ishlab chiqildi. Model uch asosiy fazani o'z ichiga oladi: diagnostika fazasi, qurilish fazasi va mustahkamlash fazasi.

Diagnostika fazasida (1-2 yil) mamlakat yoki mintaqa miqyosida qiymat zanjiri xaritalash amalga oshiriladi: mavjud korxonalar, ularning texnologik darajasi, bozor pozitsiyasi va zanjir bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi. Ayni paytda institutsional bo'shliqlar to'rt yo'nalish bo'yicha baholanadi. Ushbu faza natijasida aniq sektorga xos institutsional rivojlantirish rejasi shakllantiriladi.

Qurilish fazasida (3-5 yil) to'rtta institutsional mexanizm parallel ravishda amalga oshiriladi: qonunchilik islohotlari va standartlar tizimini xalqaro talablar bilan

uyg'unlashtirish; maqsadli moliyaviy instrumentlar (rivojlanish krediti liniyalari, kafolatli fondlar, eksport moliyasi dasturlari) joriy etish; sanoat klasterlari va texnologik parklarning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratish; hamda xalqaro texnologik hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish. Timmer va boshqalar [17] metodologiyasiga ko'ra, qurilish fazasining samaradorligini baholashda qiymat zanjiri bo'yicha yalpi qo'shimcha qiymat dinamikasi asosiy indikator bo'lib xizmat qiladi.

Mustahkamlash fazasida (6 yil va undan ortiq) yaratilgan institutsional asoslar takomillashtirilib, zanjirning yanada yuqori bosqichlari - innovatsiya, brendlash, dizayn, texnik to'qimalar - uchun institutsional muhit shakllantiriladi. Bu faza UNCTAD [14] tomonidan ta'kidlangan investitsiya muhitining takomillashtirilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan nazariy-analitik tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi.

Birinchi xulosa: Sun'iy tolalar asosida qurilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish murakkab ko'p qatlamli jarayon bo'lib, texnologik imkoniyatlar va institutsional muhit o'rtasidagi muvofiqlik uning muvaffaqiyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat texnologiyaga investitsiya qilish yoki faqat institutlarni isloh qilish yetarli emas - ikki yo'nalish sinxron tarzda amalga oshirilishi kerak. Bu xulosa North [3] institutsional o'zgarish nazariyasi va Gereffi [6] qiymat zanjiri boshqaruvi nazariyasining mushtarak mantiqiy oqibatini ifodalaydi.

Ikkinchi xulosa: To'rtta institutsional mexanizm - me'yoriy-huquqiy tartibga solish, moliyaviy instrumentlar, tashkiliy mexanizmlar va texnologik transfert - qiymat zanjirining turli bosqichlarida differensial tarzda ta'sir ko'rsatadi va bir-birini to'ldiruvchi (komplementlar) tabiatga ega. Biror mexanizmning zaif bo'lishi boshqa mexanizmlarning ta'sirchanligini ham pasaytiradi. Bu xulosaning amaliy ahamiyati - siyosat dasturlarini parchama-parcha emas, balki integrallashtirilgan tarzda loyihalash zaruratidir.

Uchinchi xulosa: Sun'iy tolalar qiymat zanjirining o'ziga xos xususiyati - kimyoviy va to'qimachilik sanoatlarining tutashuvi - institutsional talablarni tabiiy tolalar sanoatiga qaraganda ancha murakkablashtiradi. Me'yoriy-huquqiy jihatdan REACH, GHS va boshqa kimyoviy xavfsizlik tartiblari to'qimachilik sanoatining an'anaviy standartlar tizimi bilan uyg'unlashtirilishini talab etadi. Bu kesishuv joyi institutsional bo'shliqlarning eng ko'p to'planadigan nuqtasidir.

To'rtinchi xulosa: Zanjir bo'yicha yuksalish (upgrading) jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun faqat past bosqichlar - xom ashyo va kimyoviy qayta ishlash - uchun institutsional qo'llab-quvvatlash yetarli emas. Humphrey va Schmitz [10] tomonidan aniqlangan funksional yuksalish turi - ishlab chiqarishdan dizayn va brendlash funksiyalariga o'tish - alohida, maqsadli institutsional mexanizmlarni talab qiladi.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Me'yoriy-huquqiy sohadagi tavsiyalar. Sun'iy tolalar ishlab chiqaruvchilari uchun maxsus sertifikatli markazlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular milliy standartlarni EU standartlari bilan uyg'unlashtirish, test xizmatlari ko'rsatish va sertifikat berish funksiyalarini o'z ichiga olishi lozim. Qonunchilik jihatidan kimyoviy moddalar va to'qimachilik mahsulotlari sohasidagi me'yoriy bazalarni bir platformada integratsiyalash

zarur, chunki ikki sohaning alohida tartibga solinishi hozirda ko‘plab mamlakatlarda ortiqcha boshqaruv yukini keltirib chiqarmoqda. European Commission [19] tajribasi bu yo‘nalishda amaliy namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Moliyaviy sohadagi tavsiyalar. Rivojlanish banklari dasturlarida sun‘iy tolalar ishlab chiqarishning yuqori bosqichlari - texnik to‘qimalar, ekologik sertifikatlangan mahsulotlar, texnologik jihatdan intensiv segmentlar - uchun alohida kreditlashtirish liniyalari ajratilishi kerak. Eksport kafolat agentliklari faoliyatini aktivlashtirish va ularning to‘qimachilik-kimyo kesishmasiga xos xavf baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarur. ADB [15] tomonidan Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida qo‘llanilgan zanjir moliyasi (supply chain finance) modeli - qiymat zanjirining turli bo‘g‘inlarini bitta moliyaviy ekotizimda birlashtirish - amaliy qo‘llash uchun ishonchli andoza hisoblanadi.

Tashkiliy sohadagi tavsiyalar. Sun‘iy tolalar ishlab chiqaruvchilar, kimyoviy korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarni o‘z ichiga olgan tarmoqlararo klaster platformalari tashkil etilishi lozim. Klaster boshqaruvi uchun asosiy tamoyil - davlat moliyalashtirishi bilan xususiy sektorda tashkiliy liderlash mujassamlashuvi (DXSh modeli) bo‘lishi kerak. UNIDO tajribasi [11] shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli klasterlarning umumiy xususiyati - kuchli texnologik xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi va bilimlarni tashish qobiliyatidir. Kano et al. [25] ta’kidlaganidek, zamonaviy qiymat zanjirlarida koordinatsiya funksiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Texnologik transfert sohasidagi tavsiyalar. Transmilliy sintetik tolalar texnologiyalari egalari bilan litsenziya shartnomalar tuzishni osonlashtiruvchi institutsional vositachilik mexanizmini - masalan, texnologik brokerlik agentligi - yaratish zarur. Intellektual mulkni himoya qilish tizimi sun‘iy tolalar sohasida patent va litsenziya operatsiyalarini tezkor amalga oshirishni ta’minlovchi ixtisoslashtirilgan palatalar bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq. McKinsey [21] tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kelajakda zamonaviy raqamli texnologiyalar -SI, Machine learning va Digital Twin - to‘qimachilik sanoatida texnologik differensiatsiyaning asosiy omillariga aylanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gereffi, G., & Fernandez-Stark, K. (2016). Global Value Chain Analysis: A Primer (2nd ed.). Duke Center on Globalization, Governance & Competitiveness. URL: https://gvcc.duke.edu/wp-content/uploads/Duke_CGGC_Global_Value_Chain_Analysis_A_Primer_2nd_Ed_2016.pdf
2. Textile Exchange. (2022). Preferred Fiber & Materials Market Report 2022. Textile Exchange. URL: https://textileexchange.org/app/uploads/2022/10/Textile-Exchange_PFMR_2022.pdf
3. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press. ISBN: 978-0521397346.
4. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press. ISBN: 978-0684841465.
5. OECD. (2013). Interconnected Economies: Benefiting from Global Value Chains. OECD Publishing. URL: <https://www.oecd.org/sti/ind/interconnected-economies-GVCs-synthesis.pdf>

6. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78-104. URL: <https://doi.org/10.1080/09692290500049805>
7. Williamson, O. E. (2000). The new institutional economics: Taking stock, looking ahead. *Journal of Economic Literature*, 38(3), 595-613. URL: <https://doi.org/10.1257/jel.38.3.595>
8. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. World Bank Group. URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2020>
9. Kaplinsky, R., & Morris, M. (2001). *A Handbook for Value Chain Research*. IDRC. URL: <https://www.ids.ac.uk/ids/global/pdfs/VchNov01.pdf>
10. Humphrey, J., & Schmitz, H. (2002). How does insertion in global value chains affect upgrading in industrial clusters? *Regional Studies*, 36(9), 1017-1027. URL: <https://doi.org/10.1080/0034340022000022198>
11. UNIDO. (2009). *Industrial Development Report 2009: Breaking In and Moving Up*. UNIDO. URL: https://www.unido.org/sites/default/files/2009-11/UNIDO_IDR_2009_print_0.pdf
12. Ponte, S., & Sturgeon, T. (2014). Explaining governance in global value chains: A modular theory-building effort. *Review of International Political Economy*, 21(1), 195-223. URL: <https://doi.org/10.1080/09692290.2013.809596>
13. Gibbon, P., Bair, J., & Ponte, S. (2008). Governing global value chains: An introduction. *Economy and Society*, 37(3), 315-338. URL: <https://doi.org/10.1080/03085140802172656>
14. UNCTAD. (2021). *World Investment Report 2021: Investing in Sustainable Recovery*. United Nations. URL: <https://unctad.org/webflyer/world-investment-report-2021>
15. Asian Development Bank. (2021). *Asian Economic Integration Report 2021: Making Digital Platforms Work for Asia and the Pacific*. ADB. URL: <https://www.adb.org/publications/asian-economic-integration-report-2021>
16. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Publishers. ISBN: 978-0307719225.
17. Timmer, M. P., Dietzenbacher, E., Los, B., Stehrer, R., & de Vries, G. J. (2015). An illustrated user guide to the World Input-Output Database. *Review of International Economics*, 23(3), 575-605. URL: <https://doi.org/10.1111/roie.12178>
18. Morrison, A., Rabellotti, R., & Zirulia, L. (2013). When do global pipelines enhance the diffusion of knowledge in clusters? *Economic Geography*, 89(1), 77-96. URL: <https://doi.org/10.1111/j.1944-8287.2012.01170.x>
19. European Commission. (2022). *EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles*. European Commission. URL: https://ec.europa.eu/environment/strategy/textiles-strategy_en
20. ILO. (2021). *Decent Work in Global Supply Chains*. International Labour Organization. URL: <https://www.ilo.org/global/topics/decent-work-in-supply-chains/lang-en/index.htm>

21. McKinsey & Company. (2020). Fashion's New Must-Have: Sustainable Sourcing at Scale. McKinsey Global Fashion Index. URL: <https://www.mckinsey.com/industries/retail/our-insights/fashions-new-must-have-sustainable-sourcing-at-scale>
22. Sturgeon, T. J. (2009). From commodity chains to value chains: Interdisciplinary theory building in an age of globalization. In J. Bair (Ed.), *Frontiers of Commodity Chain Research* (pp. 110-135). Stanford University Press. ISBN: 978-0804760553.
23. CIRFS. (2023). Key Statistics - Man-Made Fibres. European Man-Made Fibres Association. URL: <https://www.cirfs.org/key-statistics>
24. Bathelt, H., Malmberg, A., & Maskell, P. (2004). Clusters and knowledge: Local buzz, global pipelines and the process of knowledge creation. *Progress in Human Geography*, 28(1), 31-56. URL: <https://doi.org/10.1191/0309132504ph469oa>
25. Kano, L., Tsang, E. W. K., & Yeung, H. W.-C. (2020). Global value chains: A review of the multi-disciplinary literature. *Journal of International Business Studies*, 51(4), 577-622. URL: <https://doi.org/10.1057/s41267-020-00304-2>

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

